JAHON ADABIYOTI ASARLARIDA TALABALAR HAYOTIGA BOG‘LIQ SO‘Z VA IBORALARNING BERILISHI

Abdullayeva Nabiya Idrisovna, f.f.f.d. (PhD)“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi ingliz tili o‘qituvchisi,
e-mail: nabiyaa1985@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada badiiy asarlarda talaba nutqida qo‘llaniladigan ilm-fan, ta’lim-tarbiyaga oid bo‘lgan so‘zlarning qo‘llanilishi va shu so‘zlarning ilmiy tahlillari asardagi misollar orqali muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: nutq, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, talaba nutqi, xarakter, personaj,ma’rifat.

PRESENTATION OF WORDS AND PHRASES RELATED TO STUDENTS’ LIFE IN WORKS OF WORLD LITERATURE

Abstract. The article discusses the use of science, education-related words used in students’ speech in works of art, and the scientific analysis of these words through examples in the works of writers.

Keywords: speech, science, education, student speech, character, personage, enlightenment.

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ СЛОВ И ФРАЗ, СВЯЗАННЫХ С ЖИЗНЬЮ СТУДЕНТОВ, В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В статье обсуждается использование слов, связанных с наукой, в речи студентов в искусстве, связанных с образованием, и научный анализ этих слов на примерах в работе писателей.

Ключевые слова: речь, наука, воспитание, студенческая речь, характер, персонаж, просвещение

Kirish. Badiiy asarlarda har bir personajning nutqi uning jamiyatdagi mavqei, kasb-kori, yoshiga ko‘ra qiziqishlari, xarakter-xususiyatlari asosida reallashtiriladi.

Talaba badiiy asarlarda o‘z o‘rniga ega faol obrazlardan biridir. Bu esa real hayotda talabalarning jamiyatdagi faol harakatlantiruvchi kuchlardan biri ekanligi bilan belgilanadi. Talaba obrazi keltirilgan asarlarda ularning nutqi ham alohida e’tibor bilan berilganligi kuzatiladi. Jumladan, talaba nutqiga ko‘pincha u egallayotgan sohaga oid, shuningdek, o‘quv-biluv jarayoni, ilm, ma’rifat va tarbiya bilan bog‘liq so‘zlar singdirilishiga e’tibor qaratiladi. Bir so‘z bilan aytganda, talaba

nutqi uning yoshi, ma’lumot darajasi, maqomi, hayotiy va ilmiy qiziqish va intilishlari doirasida beriladi.

Badiiy asardagi qahramon nutqi uning adabiy portretiga mos holda keltiriladi. Shuning uchun qahramonning tashqi va ichki nutqi orqali uning psixologik portreti ham namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, badiiy asar qahramonining surati xarakter, tashqi ko‘rinish, kasb, sevimli mashg‘ulotlar, tanishlar doirasi, o‘ziga va boshqalarga bo‘lgan munosabat kabi ko‘plab omillar asosida chiziladi. Ayniqsa, qahramon nutqi uning ichki dunyosini, o‘y-kechinmalarini, turmush tarzini, o‘tmishi va bugunini, kelajak bilan bog‘liq orzu-istaklarini, intilishlarini to‘liq ochib berishda muhim omil hisoblanadi.

Asosiy bosh qahramoni talaba bo‘lgan asarlarda ko‘pincha talaba hayotiga daxldor ilm, fan, ta’lim, ma’rifat, dars, ustoz, domla, institut, universitet, auditoriya, kitob, daftar, qalam, ruchka, imtihon va hokazo singari so‘zlar talabalar nutqida ko‘p uchraydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

O‘zbek adiblari asarlarida ham talabalar obrazi ko‘p tasvirlangan. Lekin ularda talabalarning nutqi bir-biriga o‘xshamagan ko‘rinishlarda berilgani e’tiborni tortadi. Biroq talabalar nutqida, asosan, bilim olish, ta’lim olishga oid so‘zlar berilgani ularga xos muhim o‘xshash jihatlardan biridir. Masalan, birgina oliy ta’limda faoliyat yurituvchi professor-o‘qituvchilarning o‘z vazifasiga ko‘ra turlicha nomlanishi badiiy asarlarda ham ifoda etilgan. Jumladan, lektor – oliy ta’limda ma’ruza o‘qiydigan ustozdir: “Auditoriya suv quyganday jim-jit bo‘lib qoldi. Lektor chetga qarab, avvalgiday past tovush bilan gapirdi” [3, 14]

To‘g‘ri, oliy ta’limda emas, jamoat orasida ma’ruza o‘quvchini ham lektor deb atashadi. Ammo yuqoridagi matnda auditoriya so‘zining keltirilganligi uning talabalar ma’ruzachisi ekanini anglatadi. Oliy ta’lim dargohlarida talabalar o‘qiydigan, dars tinglaydigan xonalar auditoriya deb nomlanadi.

Oliy ta’limda rektor, prorektor, dekan singari lavozimlar mavjud bo‘lib, shular orasida dekan ma’lum bir mutaxassislik yo‘nalishida talabalarni tayyorlaydigan fakultetning rahbari hisoblanadi. Dekan va dekan muovinlari ish yuritadigan xona esa dekanat deb ataladi. Masalan: “Mahkam! Dekanatga borar ekansiz. Siz ham Ochil. Dekan chaqiryaptilar” [3, 25].

Oliy ta’limda fan nomzodi ilmiy darajasiga erishgan pedagog dotsent, fan doktori ilmiy darajasiga erishgani esa professor unvoniga ega bo‘ladi. Professor unvoni o‘z sohasining yetuk darajasiga erishgan, uning sir-sinoatlarini professional darajada egallagan pedagoglarga beriladi. Masalan: “Ha yuring, sizning yaxshi ko‘rgan dotsentingizku, qo‘rqmasangiz ham bo‘ladi” [3, 26]. “O‘zingiz ham pedagog bo‘lyapsiz” [3,28]. “Men kecha ham kelgan edim. Bir professor firqa yacheykasini kotibi bilan urushdi” [2, 7].

Ko‘p yillar oliy dargohlarda professordan tortib oddiy asistentgacha domla deb murojaat qilish an’ana tustini olgan edi. Hozirda bu so‘z “ustoz” so‘ziga almashtirilgan esa-da, haligacha quloqqa chalinib turadi. “Yashang domla, raxmat” [1, 73].

Aslida domla – bu domulla, masjidning imom xatibini shunday deb atashsa, har qanday ilmli kishiga hurmat bilan murojaat etish shakli hamdir [5, 41].

Shunisi borki, talaba qahramonlarning nutqida ilmiy va ta’lim tizimiga xos ruscha-baynalmilal o‘zlashma so‘zlar ko‘p uchraydi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Oliy ta’limda dars beruvchi kishilar nomi: asistent, dotsent, kandidat, doktor, professor, akademik. Masalan: “Bu kishi institutda paxta seleksiyasidan dars bergan – biologiya fanlari kandidati ekanligini ham bilar edi” [1, 72].

2. Oliy ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonini boshqaruvchi kishilar nomi: rektor, prorektor, dekan. Masalan: “Progul deydigan bo‘lsa, dekanga kirib aytamiz” [3, 15].

3. Oliy ta’limda va oliy ta’limdan keyingi bosqichda o‘quvchilar nomi: student, bakalavr, magistr, aspirant, doktorant, dissertant. Masalan: “Bizda aspirantlar bor”. [1,74] Yoki: “Bultur uch student kelgan edi bittasi ham turolmadi... Laborant qilib tayinlashimiz mumkin...” [1, 72].

4. Oliy ta’lim muassasalarida ish yuritish xonalarining nomi: rektorat, dekanat, auditoriya, laboratoriya. Masalan: “Yo‘llanma berilgan rektoratning buyrug‘i ham bor.” [1,72]. Yoki: “Sekin-sekin auditoriya, kutubxona va boshqa shunday joylarda ikkovi o‘tirib dars tayyorlaydigan bo‘ldi” [2,15]

5. Oliy ta’lim muassasalari nomi: institut, universitet, akademiya, ilmiy tadqiqot instituti. Masalan: “Surxondaryo oblastiga ketaversam bo‘lardi. Seleksiya ishi bo‘yicha 3 ta studentni ilmiy tadqiqot institutiga jo‘natishdi” [1, 35].

6. Oliy ta’limda o‘qish jarayoniga xos so‘zlar: sessiya, leksiya, seminar. Masalan: “Ha endi har holda sessiyaga ikki oy bor-ku” [3, 31].

7. Oliy ta’lim muassasalariga aloqador bo‘limlar nomi: fakultet, gruppa. Masalan: “Hazil, hazil bilan, yaxshi bo‘lmayapti. Hozir fakultet o‘zi to‘polon” [3, 25].

MUHOKAMA

Asar qahramonlarining nutqida bunday rus tili orqali o‘zlashtirilgan so‘zlar qatorida yana fors-tojik hamda arab tilidan o‘zlashtirilgan, ayni paytda oliy ta’limga aloqador eskirgan so‘z sifatida qaraladigan domla, dorilfunun, ilmu urfon va hokazo kabi so‘zlar ham uchraydi. Jumladan: “Dorilfunun ham masxara bo‘ldi shekilli” [2, 7]. Yoki: “O‘ziku, bizni ilm-urfonga chanqoq xalq deydi, yana mehnatkash, nomehnatkash xalq deb ajratgani nimasi!” [2, 7]

Talaba personajlarning nutqida umuman yoshlar hayotiga aloqador so‘zlarni xam uchratish mumkin. Masalan: “Kengash a’zosi ekaningizdan xabarim bor. Hozir dolzarb payt yoshlar yeng shimaryapti” [3, 27]. Yoki: “Biz yoshlar tashkilotining a’zosi bo‘lgan paytimizda tashkilot vojagining eng zo‘r quroli shaxsan ibrat ko‘rsatish edi” [3, 28].

Shuningdek, talaba personajlarning nutqida ma’ruza (“Qani ma’ruza vaqtida yozilgan she’rlar qanday bo‘lar ekan, bir ko‘raylikchi” [3, 17]), konsultatsiya (“Men konsultatsiya byurosiga uchragan edim” [2, 5]), davomat, progul (“Davomat bo‘yicha oxirgi o‘ringa tushib ketibmiz. Bir xaftada 100 soat progul” [3, 26]), konspekt (“U erta bilan xatni pochtaga tashlab kimyodan kospektlarini

o‘qishga tutundi” [1, 61]) kabi o‘quv jarayoni bilan bog‘liq so‘zlar ham ko‘p berilganligi kuzatiladi.

NATIJALAR

Ko‘rinib turibdiki, talabalar nutqida bir necha xil turdagi ta’limga oid so‘zlar goh neologizm, goh istorizm sifatida ishlatilib kelinmoqda.

Talaba obrazi nutqidagi ilm-fan, ta’lim-tarbiyaga oid so‘zlar, albatta, u yashab turgan davr va muhitga mos tarzda qo‘llanilgan. Masalan, A. Qahhorning “Sarob” romanida rabfaklar tilga olib o‘tilgan. “Rabfak ham bor. Bular rabfakka. Hozir rabfakda 29 xil millat bor ekan” [2, 7].

Rabfak hozirgi o‘quvchi uchun eskirgan qisqartma ot hisoblanadi. O‘z davrida rabfaklar “ishchilar fakulteti” birikmasining qisqartmasi bo‘lgan. 1918-1936-yillarda ishchi va dehqonlarning zudlik bilan oliy o‘quv yurtiga o‘qishga zudlik bilan kirish uchun tayyorlagan maxsus o‘quv yurti [4, 333].

Shuningdek, yaqin-yaqinlargacha iste’molda bo‘lgan aspirantura, aspirant so‘zlari bugungi sharoitda eskirgan so‘zlar qatoriga tushib qoldi. Negaki, hozirda oliy ta’limdan keyingi ta’lim ikki bosqichda PhD va DSc ko‘rinishlarida dvom ettirilayotgani sababli bu so‘zlar iste’moldan chiqarildi. Lekin badiiy asarlarda ularni uchratamiz: “Sen...aspirantura....ilmiy ish” [1, 30]. Yoki: “Aspirantmi yoki kichik ilmiy xodimmi... ishqilib, shu yerda ishlasam bas”. [1, 74]

“Universitet roman” janrida yozilgan asarlarda oliy ta’lim dargohi bilan bog‘liq shunday so‘zlar ishlatiladiki, ular o‘zbek adabiyoti asarlarida mavjud emas. Jumladan, Tom Vulfning “Men Sharlotta Simons” (“I am Charlotte Simons”) asarida talabalar birlashmaci, yotoqxonaning o‘rniga “house” (uy) so‘zi ishlatilgan. Masalan: “Ular kursdosh edilar va o‘sha talabalar birlashmasiga mansub edilar. Vens hatto u yerda prezident sifatida ro‘yxatga olingan” [9].

Yoki yana: “Uy” so‘zi Dyupon ma’muriyati tomonidan “YO bo‘lim, birinchi kurs talabalari turar joyi”ning so‘zi bilan almashtirish uchun maxsus ishlatilgan. “Yotoqxona” bu binoga deyarli tatbiq etilmadi.

Ingliz adiblari asarlarida “akadem” so‘zi ko‘p ishlatilishi kuzatiladi. Masalan, akademik yil, akademik shahar, akademik qiyofa kabi.

M. Braberrining “Tarixiy shaxs” (“The History man”) asarida “talabalar shaharchasi” – “akadem shahar” deb berilgan. “U jiddiy qabul qilinayotganini ko‘rdi. Unga qadimiy hududda taraqqiy etgan zamonaviy akademik shahar yoqdi, chunki bu uning kelajagini o‘zgartirishiga ishonardi va tasavvur qilardi” [9].

U. M. Tekkerining “Pendinnis tarixi” (“The History of Pendynnes”) asarida “akademik qiyofa” birikmasi qo‘llangani kuzatiladi: “Keyin xizmatkor Devis kalitlarni qo‘lida ushlab, mayor va Penni akademik qiyofasidan xijolat tortib, janob Spayser ketganidan so‘ng yangi kelgan odamni kvartiraga hovli bo‘ylab olib bordi” [7].

“Tom Braun Oksford”da (“Tom Brown in Oxford”) asarida Angliya ta’limi, universitet hayotiga bog‘liq turli-tuman so‘zlarni talabalar nutqida uchratish mumkin:

1. Mixaylov trimester – o‘sha davrda Oksfordda o‘quv yili to‘rt semestrda (trimestrda kechgan). Bular: Mixaylov (Michelmas term), Lent (Lent term), Pasxa

(Easter term) va kichik Troitsin (Trinity term). Shunlardan Mixaylov trimesteri oktabrning boshidan Rojdestvogacha davom etardi. Uning nomi 29-sentabrga to‘g‘ri keladigan Avliyo Mixail kunidan kelib chiqqan.

2. Rus tilida “nastavnik”, ingliz tilida “tutor” tushunchasi kollejdagi profesor-o‘qituvchi nomlanishlaridan birini anglatadi.

3. Senate house – o‘qitish ingliz tilida olib boriladigan ba’zi universitetlarning asosiy ma’muriy binosi nomi.

4. Jentelmen-kommonerlar (Gentelmen-commoners) Oksford va Kembrij universitetlaridagi imtiyozli talabalar guruhining nomi bo‘lib, ular oddiy talabalarga qaraganda o‘qish va turar joylari uchun belgilangan stavkadan ancha yuqori ancha yuqori haq to‘laydigan talabalardir. Jentelmen-kommonerlar XIX asrda yo‘q qilindi.

5. Kollej a’zolari (Fellow of college) – kollej boshqaruvida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar va boshqa mansabdor shaxslar. Ularni universitet a’zolari (members of university) bilan adashtirmaslik kerak. Har bir talaba ro‘yxatga kiritilgan paytdan boshlab universitetga a’zo bo‘ladi. Kollej a’zosi (fellow of college) bo‘lish uchun kamida bakalavr darajasiga ega bo‘lish, maxsus imtihon topshirish lozim sanaladi. Qoida tariqasida kollej a’zosining bo‘sh lavozimiga bir nechta nomzodlar hujjat topshirgan. Imtihon natijalariga ko‘ra hamda kollej to‘liq a’zolarining ovoz berish yo‘li bilan bu masala hal qilingan.

6. Ochiq ta’lim muassasasi – har bir kollejning hayoti, shu jumladan, yangi a’zolarning ishga kirishi, uning ustavlari bilan tartibga solingan. Uni “universitet nizomi” bilan adashtirmaslik kerak, bular har xil narsalar. Ustavda nomzodni ko‘rib chiqish va qabul qilish uchun potensial nomzod bajarishi kerak bo‘lgan barcha shartlar belgilanishi mumkin. Bu shartlarning ba’zilari g‘alati tuyulardi, lekin ko‘plab kollejlar o‘rta asrlarda tashkil etilgan va partiya tuzishda asosiy rolni diniy cherkovlar bajargan hamda kollejga asos solgan. Shunday qilib, kollej asoschisi muayan miqdordagi bo‘sh ish o‘rinlari ma’lum bir okrug yoki hatto cherkov odamlariga berilishini yoki ular kabi bir ta’lim muassasasining bitiruvchilari yoki hatto uning asoschisi, oilasining vakillari bo‘lishini xohlashi mumkin edi. Kollejdagi bo‘sh ish o‘rinlarining umumiy soni ham ustav bilan belgilanardi. Boshqa tomondan, bunday cheklovlar bo‘lmasligi mumkin ham edi va bu kollej ma’muriyatiga ochilgan bo‘sh ish joyini erkin tarzda tasarruf etish, masalan, o‘z davrining taniqli olimini ishga taklif qilish imkonini berardi. Minimal miqdordagi cheklovlarga ega bo‘lgan bunday kollejlar “ochiq o‘quv muassasalari” deb nomlangan. Ammo bu erkinlik nisbiy edi va o‘sha paytlarda ko‘pchilik kollejlarga a’zo bo‘lish uchun diniy ruhoniy qadr-qimmatga ega bo‘lishi kerak edi [8].

XULOSA

Talaba obrazi, talabalik davri, madrasalar, universitet, institut, litsey, kollej singari o‘quv dargohlari, ularda saboq oluvchi tolibi ilmlar hamda saboq beruvchi domla, professor-o‘qituvchilar o‘rtasidagi ustoz-shogird munosabatlari, turmush tarzi, orzu-intilishlari tasviri va talqini, ular nutqiga aloqador so‘z va birikmalarning leksik-semantik, uslubiy-vazifaviy, badiiy-konseptual xususiyatlari, tarixiy-zamonaviy qatlami alohida e’tiborni tortadigan masalalardan biridir. Zero, Sharqu G‘arb

adabiyotida jamiyatning yosh, ilg‘or, jo‘shqin, ilmga chanqoq, yangilikka o‘ch, olg‘a intiluvchan, o‘ta harakatchan, faol kuchlaridan biri bo‘lgan talabalar uzoq asrlardan hozirgacha og‘zaki va yozma badiiy asarlarda an’anaviy obrazlar qatorida badiiy gavdalantirib kelinmoqda.

Keltirilgan qator misollardan shu anglashiladiki, jahon, jumladan, o‘zbek universitet, ta’lim hayotidagi so‘zlar bilan ingliz tilidagi so‘z va iboralar vazifasi, qo‘llanilishi jihatidan muayyan darajada yaqin hamda farqlidir.

Xulosa qilib aytganda, nutqning barcha jihatlari nafaqat tasvir, balki talqin uchun ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirmuhsin. Asarlar 4 jildlik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1981. – 60-80 bet.
2. Qahhor A. Sarob. – T.: Sharq nashriyoti, 1995. –7-25 bet.
3. Qodirov P. Uch ildiz. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – 25-60 bet.
4. Hamidova M. Bolalar adabiyoti fanini o‘qitishda badiiy obraz tahliliga o‘rgatish. – Namangan., 2018. – 25 bet.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-41,333 betlar.
6. Tom Wolfe. I am Charlotte Simons. – Oxford and New York:Oxford University Press, 2001. – P.5.
7. Smollett T. The Adventures of Peregrine Pickle — GB.: Public Domain, 2012. – P. 101.
8. http://tbatox.narod.ru
9. Malcolm Bradbury. The History man. – E.: University of Watermouth, 2002. – 162 p.
10. Komilova S. Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi masalasiga doir. – O‘zbek tili va adabiyoti. – 2009. – №6. – B.76-80.